

**QORAQALPOQ BAXSHICHILIGI VOSITASIDA OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI
TALABALARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

Dinara Nuratdinova

Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibasi,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15106427>

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Qoraqalpoq baxshichiligi vositasida oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalasi yoritilgan.*

Baxshichilik qadimiy og'zaki an'analarga asoslangan holda yoshlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularning madaniy-ma'naviy saviyasini oshirish va kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Maqolada baxshichilik san'atining ta'lim jarayonidagi o'rni, uni kasbiy tayyorgarlik tizimiga integratsiya qilish usullari hamda natijalari tahlil qilinadi.

Tadqiqot davomida an'anaviy baxshichilik usullari hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unligi asosida talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish istiqbollari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *Qoraqalpoq baxshichiligi, kasbiy tayyorgarlik, oliy ta'lim, ijodiy tafakkur, madaniy-ma'naviy tarbiya.*

XXI asrda ta'lim tizimi oldida yosh avlodni har tomonlama yetuk, kasbiy jihatdan malakali va ijodiy fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalash vazifasi turibdi. Xususan, milliy madaniyat va an'analar negizida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, xalq og'zaki ijodining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan Qoraqalpoq baxshichiligi nafaqat badiiy estetik tarbiya vositasi, balki ta'lim jarayonida talabalarining kasbiy mahoratini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodik vosita sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Qoraqalpoq baxshichiligi xalq og'zaki ijodining noyob shakli bo'lib, unda musiqiy san'at, adabiyot va milliy madaniyat mujassamlangan. Ushbu san'at turi pedagogik jarayonda qo'llanilishi natijasida talabalarining kasbiy tayyorgarligi, ijodiy tafakkuri va madaniy kompetensiyasi rivojlanadi. Shu bois, ushbu tadqiqot oliy ta'lim jarayoniga baxshichilik elementlarini integratsiya qilish orqali talabalar tayyorgarligini takomillashtirishni o'rganadi.

Qoraqalpoq baxshichiligi- xalqning tarixiy xotirasi, qadriyatlari va estetik dunyoqarashini o'zida mujassam etgan madaniy meros hisoblanadi. Baxshilar tomonidan ijro etiladigan dostonlar, ularning kuy-ohanglari va poetik uslublari yosh avlodning nafaqat adabiy-estetik didini

shakllantirish, balki kasbiy tayyorgarligini oshirishda ham muhim o'rin tutadi. Shu bois, mazkur tadqiqotda Qoraqalpoq baxshichiligi orqali talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari o'rganiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, 2020 yil 26 maydagi "Madaniyat va sasaning sohasining jamiyat hayotidagi o'ri va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-sonli farmoni, 2017 yil 17 noyabrdagi "O'zbek milliy maqom sasatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-sonli, 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sonli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 noyabrdagi "Maqom sasatiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni tashkil etish to'g'risida"gi 940-sonli, 2020 yil 2 sentyabrdagi "Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa sasati instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 536-sonli qarorlari, ushbu sohani rivojlantirish Davlat nazoratida ekanligidan dalolatdir. Mamlakatimiz madaniy faoliyatida yana bir ulkan yangilik bo'ldiki, bu ham bo'lsa "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi qonunni qabul qilinishi bilan bog'liqdir.

Qoraqalpoq baxshichiligi xalq og'zaki ijodining muhim tarkibiy qismi bo'lib, dostonchilik san'ati, musiqiy ijrochilik va sahna madaniyatini o'zida mujassam etgan. Baxshichilik nafaqat milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish vositasi, balki oliy ta'lim tizimida talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik resurs hamdir. Ushbu maqolada baxshichilik san'atini oliy ta'lim jarayoniga joriy qilish orqali talabalar kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari tahlil etiladi.

1. Qoraqalpoq baxshichiligining ta'lim jarayonidagi o'ri

Baxshichilik san'ati tarixan ustoz-shogird an'analari asosida shakllangan bo'lib, bugungi kunda zamonaviy ta'lim metodlari bilan uyg'unlashtirilishi mumkin. Baxshichilik quyidagi jihatlari bilan oliy ta'limda talabalar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi:

Nutq madaniyati va badiiy ifoda – baxshilar o'z dostonlarini muayyan ritm va ohangda ijro etadi, bu esa talabalar nutqini boyitadi.

Musiqiy savodxonlik – doston aytishda musiqa va ritm muhim o'rin tutadi, bu esa musiqiy yo'nalishda tahsil olayotgan talabalar uchun katta amaliy ahamiyatga ega.

Ijodiy tafakkur va sahna madaniyati – baxshilar doston orqali dramatik sahnalarni tasvirlaydi, bu esa aktyorlik mahorati va badiiy tafakkurni shakllantirishga yordam beradi.

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish – pedagogika, san'at, filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun baxshichilik milliy madaniyat asosida o'qitish metodikasini boyitadi.

2. Qoraqalpoq baxshichiligi asosida kasbiy tayyorgarlikni oshirish metodlari

Baxshichilikni oliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish uchun quyidagi pedagogik metodlardan foydalanish mumkin:

2.1. An'anaviy metodlar

Ustoz-shogird an'anasi – talabalarga tajribali baxshilar tomonidan dars berish va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish.

Doston matnlarini yod olish va ijro etish – talabalar baxshichilik san'atiga xos ohang va talaffuz usullarini o'rganadi.

Musiqiy hamrohlik – baxshilar uchun asosiy cholg'u asboblari bo'lgan dutar, do'mbira, g'ijjak bilan doston ijro qilish texnikasini o'rgatish.

2.2. Innovatsion metodlar

Interfaol ta'lim usullari – baxshichilik an'analarini teatr, drama, sahna chiqishlari orqali o'rgatish.

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish – audio va video materiallar orqali baxshilar ijrosini o'rganish va tahlil qilish.

Onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish – masofaviy o'qitish tizimlarida baxshichilik bo'yicha interaktiv darslarni tashkil etish.

2.3. Eksperimental tadqiqot va amaliyot

Talabalar orasida baxshichilik san'atini o'rganish bo'yicha eksperimental guruhlar tashkil qilish.

Pedagogik jarayonda baxshichilik asosida o'qitishning samaradorligini tahlil qilish va baholash.

O'quv jarayonida baxshichilik darslarini sinov tariqasida olib borish va natijalarini statistik tahlil qilish.

3. Qoraqalpoq baxshichiligining oliy ta'lim tizimidagi amaliy qo'llanilishi

Qoraqalpoq baxshichiligini oliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

Maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish – musiqiy san'at, filologiya va pedagogika yo'nalishlari uchun baxshichilik asosida maxsus kurslar tashkil etish.

Amaliy mashg'ulotlar va baxshilar festivallarini tashkil qilish – talabalar doston aytish san'atini amaliyotda o'rganishi uchun baxshilar ishtirokida mahorat darslari o'tkazish.

Ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish – baxshichilik an'analari va ularning zamonaviy ta'limdagi o'rnini o'rganish.

Raqamli resurslar yaratish – baxshichilik darslari uchun onlayn kutubxonalar, audio va video darsliklar ishlab chiqish.

Qoraqalpoq baxshichiligi oliy ta'lim tizimida kasbiy tayyorgarlikni oshirishning samarali vositalaridan biri bo'lib, u talabalarni nafaqat milliy san'at an'alariga oshno qiladi, balki ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Baxshichilikning pedagogik imkoniyatlarini kengroq o'rganish va uni zamonaviy ta'lim metodlari bilan uyg'unlashtirish natijasida oliy ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar ishlab chiqilishi mumkin. Mazkur tadqiqot natijalari musiqa san'ati, pedagogika va filologiya yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun yangi ta'lim metodlarini shakllantirishga yordam beradi hamda milliy madaniyatni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:

1. Aygul Nadirova. "Qaraqalpaq muzika tariyxi", "Sano-standart" baspasi, Toshkent-2018
2. Qalli Ayimbetov. "Qaraqalpaq xalqinis ko'rkem awizeki do'retpeleri", "Bilim" baspasi, No'kis-1996
3. Qabil Maqsetov. "Qaraqalpaq jiraw baqsilari", "Qaraqalpaqstan" baspasi, No'kis 1983 jil
4. Qalli Ayimbetov. "Xaliq danalig'i", "Qaraqalpaqstan" baspasi, No'kis-1968 jil

Internet saytlari

5. www.tdpu.uz
6. tdpu-internet.Ped
7. www.ziyonet.uz
8. www.edu.uz